

## ISAJON SULTONNING “BOQIY DARBADAR” ROMANIDAGI RAMZ VA TIMSOLLARGA AYRIM QAYDLAR

**Kamilova Nazokat Saidjonovna**

Xorazm viloyati Shovot tumanidagi 5-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolamiz O‘zbekiston xalq yozuvchisi, Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” romanidagi ayrim e‘tiborimizni tortgan ramz va timsollarning sharhiga bag‘ishlanadi.

Zero, asarning g‘oyasi chuqur umumbashariy mazmun kasb etadi, undagi ramz va timsollarning ortida chuqur ma‘nolar goh pinhon, goh oshkora ko‘zga tashlanadiki, insonni anglashga, o‘qib va uqib olishga chorlaydi.

**Kalit so‘zlar:** ramz, timsol, badiiyat, genoma, sura, oyat, istidroj, roman, qissa, hikoya, ateistik ruh.

{٤٤} فَلَمَّا نَسُوا مَا ذُكِّرُوا بِهِ فَتَحْنَا عَلَيْهِمُ أَبْوَابَ كُلِّ شَيْءٍ

“(Ular) eslatilgan narsa (sinov kunlari)ni unutganlarida ularga har narsaning eshiklarini ochib qo‘ydik” (“An‘om” surasi, 44-oyat).<sup>1</sup>

Allohning bu uslubda in‘om etishi “istidroj” deyiladi. Ya‘ni osiy bandaga o‘z ne‘matlarini behisob berib boradi va u ana shunday g‘aflatda bo‘lganida, uni azobi bilan tutadi.

Albatta, asarning badiiy qimmatini, avvalo, uning mazmuniga qarab belgilanadi, biroq quruq g‘oya bilan badiiy asar tugal bo‘la olmaydi. G‘oya go‘yo tanani tutib turuvchi suyak bo‘lsa, et – asarning badiiyati (Asar badiiyligini belgilovchi eng muhim qirralardan biri – ramz)dir.

Romandan olingan quyidagi parcha bir martalik o‘qilishdayoq insonning xotirasiga muhrlanadi va uning yukini his qilasz:

“Shahardagi qatl tomoshasi davom etmoqda edi... Mahkum (Iso alayhissalom) haddan tashqari holdan toygan edi. U shundoqqina etikdo‘zning devori yoniga kelib qoldi.

Mana u bir daqiqa ko‘zlarini yumdi, xolsizlikdan gandaraklab ketdi.

Imillama, imillama! – deb chuvvos solar edi olomon.

Mahkum bir damgina nafas rostdash uchun etikdo‘zning devoriga suyandi.

Hali sen mening devoringa suyanadigan bo‘ldingmi? Imillama! – deb qichqirdi etikdo‘z ham va shiddat bilan olg‘a intilib, uni ikki qo‘llab itarib yubordi... o‘zining qilgan ishidan mamnun, tirjayib turar edi...

Shunda Muborak Kishi (Iso alayhissalom)... etikdo‘zga qarab shunday dedi:

Turgin va ravona bo‘lgin!

“Men-ku imillamayman, ammo sen mahshar kuni kelishini uzoq kutasan...” – deyildi unga.

“Endi sen to qiyomatga qadar yer yuzida betinim daydishga mahkum etilding”, – deyildi unga.

“Hamda sening qiladigan ishing – hech narsa, hech narsa, faqat hech narsa”, deyildi unga.<sup>2</sup>)

Etikdo‘z shu tariqa boqiy darbadarga aylandi. Endi ramziy ma‘noda etikdo‘zni bir *qavm*, yoki *millat*, boringki, *insoniyat* deb oladigan bo‘lsak, romanning naqadar falsafiy ruh bilan sug‘orilgani, unda butun bashariyatning taqdiri haqidagi fikrlar barq urib turganini his qilamiz.

Isajon Sultonning “*Boqiy darbadar*” romanini o‘qir ekansiz Qur‘oni karimdan olingan yuqoridagi oyat ayni shunday umrini darbadarlikka – bema‘niliklarga sarflayotgan bemaqsad, beburd, betarbiya insonlarga atalganday, ana shu oyat bot-bot aqlingiz va ruhingizda qo‘ng‘iroq bo‘lib jaranglayveradi.

Imom Ibn Jarir Tabariyning tafsiridan: “Vaholanki, ularga rahmat va tavba eshiklari hamda boshqa ko‘plab eshiklar ochilmagani ma‘lum”<sup>3</sup>, – degan jumlanini ham qo‘shsak, romandagi ramziy ma‘nodagi butun insoniyatning taqdiriga dahldorlik tuyg‘usini his qilamiz.

<sup>1</sup> Tarjima va tafsir muallifi: Shayx Abdulaziz Mansur. Qur‘oni karim. –Toshkent: Movarounnahr, 2020. –B. 132.

<sup>2</sup> Sulton I. Qoraqush yulduzining siri. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. –B. 152.

<sup>3</sup> Salohiddin ibn Ahmad. Islomda bid‘at tushunchasi. – Toshkent: Munir, 2021. –B. 31.

Olim Rahmon Qo'chqor ushbu roman haqida: "Isajon Sulton o'quvchi – insoniyat bilan ramzlar tilida so'zlashmoqni, dard-u dunyosini unga yuqtirmoqni istaydi... va to'g'ri qiladi"<sup>4</sup>, – degan fikrni bildiradi va bu bizning ham xayolimizni band qilgan *dunyo miqyosidagi ma'naviy darbadarlik* haqidagi haqiqatimizga mos tushadi. Shuningdek, adabiyotshunos Rahimjon Rahmat ham quyidagi fikrlarni bildiradi: "Isajonning barcha asarlarini boshdan-oyoq diqqat bilan o'qishni tavsiya qilardim. Chunki yozuvchi har bir jumлага, jumлада aks etgan u yoki bu tabiat hodisasiga qandaydir ramz-ma'no joylab ketgan bo'ladi"<sup>5</sup>.

Shuningdek, romanda Xudoga isyon o'laroq yaratilgan sun'iy odamlar – *genomalar* obrazlari mavjud. Nurlanishlarga chidamli genoma yaratildi, biroq uning eng katta kamchiligi – u ko'r. Yana bir genoma haddan ziyod egiluvchan, lekin bu egiluvchanlikni ta'minlash uchun organizm bo'g'imlarga kerakli suyuqlikni yetkazib berolmaydi. Nihoyat, mukammal genoma yaratildi, lekin uning eng katta kamchiligi uning gaplarida ko'rildi: "Men kimman?", "Nega tug'ildim?" deya nima maqsadda yaratilganini bilish uchun Xudoni izlab yo'lga chiqdi.

Bu genoma bizga har bir *ASL MEN*ini, *ASL HAQIQAT*ini topishni istagan kishi timsoli bo'lib tuyuladi. Genoma ham darbadar.

Romandagi darbadarlarni quyidagicha tahlil qilishimiz mumkin.

*Davr kishisining ramzi* deya, zamon nuqtayi nazaridan oladigan bo'lsak, yaqin o'tmishimizda, SSSR deb atalmish imperiya bizga (Boshqa xalqlardan ham ko'ra biz buni yaxshi bilishimiz shart!) "Xudo yo'q" deya ateistik ruhni singdirmadimi?! Ochiqchasiga bir kalima Qur'on o'qiy olmay, o'z ota-onamizni aroq ichib, ruslarcha dafn qilmadikmi?! Qabristonlar boshiga militsiyalar qo'yilmadimi?! Milliyligimiz, tilimizdan ajratilib (o'zbek millatining milliyligiga tahdid o'laroq), biz ham o'zimizga "Kimmiz?!" degan savolni bermadikmi?! Iymon va millatning qo'rg'oni – Vatanimizdan Vatan ichra yashab ajratib qo'yilmadikmi?!

*Qalb kishisining ramzi* deya, ruhiyat nuqtayi nazaridan oladigan bo'lsak, har bir inson bu dunyoga kelishidan oldin musulmon bo'lib, fitratda tug'iladi, umri davomida, xuddi genoma kimligini, nega tug'ilganini anglash uchun yo'lga chiqqani kabi (Bu yerdagi yo'lni ham ramziy ma'noda *umr* deyish mumkin) asli (asl boshlanishi – Ulug' Ruh)ni topishi kerak bo'ladi. Ko'nglini Allohning uyiga aylantirishi lozim bo'ladi.

*Darbadarlikka mahkum insonlarning, taqdirlarning va xalqlarning timsoli*. Uchinchi tahlil ham mavjudki, yozuvchi roman xotimasida bo'rdan keyin odamlar qum ostida qolib sahro yastangach, "baland bo'yli, uzun sochlari yelkasiga tushgan, yalangoyoq" bir inson (darbadar), yolg'iz sahrodan ketib borayotganini yozadi va asarni shunday yakunlaydi: "Bu odamni keyingi asrlarda yanada ko'proq eslaydilar. Uni goh *darbadarlikka mahkum insonlarning, goho esa taqdirlarning va xalqlarning timsoli* sifatida tilga oladilar".

Shu o'rinda nega endi keyingi asrlarda ko'proq eslanishini ham bir tafakkur qilib ko'rish lozim bo'ladi. Ushbu jumboqqa Tog'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" qissasidagi Bo'ri polvonning quyidagi fikrlari javob bo'ladigandek nazarimizda:

«Avlodlar almashgan sayin... yo, pirim-e, tuf-tuf-tuf... avlodlar almashgan sayin... yurak yo'qolib boryapti!

Jasad bor! Aql bor!

Yurak yo'q!

To'rt mucha bor! Kuch-quvvat bor!

Yurak yo'q!

Ko'krakda jon bor!

Yurak yo'q, yurak!..

Farzandlar hayotga beparvo qaraydi. Musibat bilan xursandchilik farqiga bormaydi.

Farzandlar o'zlari minayotgan mashinaga o'xshaydi! Odam kim, mashina kim, bilib bo'lmay qolyapti...»

E'tiborli jihati yozuvchi darbadarni o'z hayotidan ham suv ichganligini ta'kidlaydi:

"Turli-tuman kishilar ham men kabi ertalab ishga ketib, qanaqadir arzimas yumushlar uchun bebaho daqiqalarini sarflab, faqatgina uxlash va tongda yana qaytadan ishga jo'nash uchun tungi ko'chalardan uylariga qaytar ekanlar, shu holatning o'zi ham darbadarlikday tuyula boshlagan edi..."

<sup>4</sup> Isajon Sulton nasri badiiyati (Ilmiy maqolalar, taqrizlar, adabiy suhbatlar, maktublar). –Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017. –B. 86.

<sup>5</sup> O'sha kitob. –B.93.

...men esa bir mahallar yurtidan yozuvchilikni orzu qilib safarga chiqqan va yo'lda tirikchilik tashvishlariga ovora bo'lib qolgan bir yo'lchi kabi edim va bu taqdirim ham nimalargadir ishora qilar edi..."

Demak, *oddiy turmush tashvishlari bilan kun kechirayotgan darbadarlar timsoli* desak ham bo'ladi. Isajon Sulton yana darbadarlik haqida quyidagi fikrlarni bildiradiki, endi darbadar odiy kun kechiruvchidan kengroq ijtomoiylik kasb eta boshlaydi:

"Yovuz bir darbadar bor edi tag'in..." deb ogohlantirardi millatimning bir iste'dodi (Shavkat Rahmon misrasi)... olamda pul topish uchun yashaydigan va kekkayishni xush ko'radigan *ming-millionlab darbadarlar* bor ekani aqlimni shoshirar edi".

Ijodkor tabiat hodisalari, manzaralariga ramziy ma'no yuklaydi. Tabiat tasviri uning asarlarida shunchaki qahramon ruhiyatini aks ettiradigan bir vositagina emas, Yaratganning qudratini aks ettiruvchi ilmdan nishona hamda idrok ila qaraguvchi kishiga hikmatdir.

Romanda yana *shamol – Parvardigorning qudrati ramzi* sifatida gavdalanadi va ma'naviy darbadarlikka uchragan insonlarni yo'qlikka mahkum qiladi:

"Ichida xas-xashaklar-u shox-shabbalar mayda-chuyda cho'l jonzotlariga qo'shib chirpirak bo'lib aylanayotgan, girdoblari ulkan jonli ilonlar kabi yerdan ko'kka cho'zilgan bo'ron, sahroning har bir qadamini g'oyatda sinchkovlik bilan "titib" chiqib, hozir nishonini "yo'qotib" qo'ygan va bir-biriga tashlanishga shay turgan harbiy uchoqlar tomon shiddat bilan yaqinlashib bormoqda edi... Tiyonshon yonbag'ridagi g'orda istiqomad qiladigan avliyo ham qo'rquvga tushgan edi. Parvardigori olam kuch-qudratining bir timsoli bo'lgan bu ofatning nima ekanini u yaxshi bilardi. Bir ozdan so'ng urilgan yanada shiddatliroq epkin g'or og'zida o'sgan anjirni – rizq daraxtini tag-tomiri bilan sug'urib oldi va pastlikka qarab xasday uchirib ketdi..."<sup>6</sup>

Bu yerda yana *anjir daraxti timsoli* ham borki, u adabiyotimizda *rizq daraxti* hisoblanadi. Qur'oni karimda "Tiyon", ya'ni "anjir" surasi mavjud bo'lib, "Qisasi Rabg'uziy" dan ham bilamizki, anjir jannat daraxtidir.

«Od (Hud payg'ambar qavmi) esa, dahshatli, quturgan bo'ron bilan halok qilindilar. U (bo'ronni Alloh) ularning ustiga paydar-pay yetti kecha va sakkiz kunduz hukmron qilib qo'ydi, endi u joydagi qavmning (chirib) ichi bo'shab qolgan xurmo daraxtining tanasidek qulab halok bo'lib yotganlarini ko'rasiz. Bas, ulardan (biror) asoratni ko'ryapsizmi?! (Aslo! Ularning barchalari halok bo'lib bitdilar)»<sup>7</sup>. ("Hoqqa" surasi, 6–8-oyatlar)

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki, shamol Allohning izni ila goh g'azabga aylansa, goh rahmatga aylanadi. Alloh taolo Sulaymon (alayhissalom)ga shamollarni buysundirib qo'ygan va Sulaymon (alayhissalom)ning taxti va lashkarini shamol bir joydan boshqa joyga ko'chirib o'tirardi.

**"Sulaymonga ertalab bir oylik, kechki payt bir oylik (masofani bosib o'tadigan) shamolni (bo'yin sundirdik) va uning uchun mis bulog'ini oqizib qo'ydik"**<sup>8</sup>. ("Saba" surasi, 12-oyat)

Mashhur tobein Hasan Basriyning aytishicha, Alloh Sulaymon (alayhissalom)ga juda go'zal otlarni duch keltiradi, yaratgan zikridan otlar sabab chalg'iganini anglagan zot ularni qurbonlikka so'ygach, (Sulaymon a.s. davrida sigir va buqa kabi otlarni ham qurbonlik qilishgan) Alloh unga yanada yaxshi harakatlanish vositasini, ya'ni shamolni beradi. Hasan Basriy Sulaymon (alayhissalom) tongda Quds (Isroil)ni tark etib, kechki payt Istahr (yoki Stahr – Eron)ga yetganligini ta'kidlagan. Bu ikki joy oralig'idagi masofa 2000 kilometrni tashkil etadi. Istahrga borib asr namozini o'qib, ovqatlanib, sayohatni davom ettirganligi va kun botganda Qobulga yetgan (bu ham taxminan 2000 kilometrni tashkil etadi)ligi haqida ham roviylar ma'lumot berganlar.

Yozuvchi romandagi *bo'ron* bilan bog'liq *ramziy ishoralarga* quyidagi fikrlarni bildirgan edi:

"Modomiki, timsollar va ishoralar olamida yashayotgan ekanmiz, zamonaviy dunyo ham ongimizda bo'ron hosil qilishi turgan gap. Chunki o'zbek kishisi shu mahalgacha ko'rmagan u bexabar yuzlab hodisa girdoblarining orasida qoldi... Bugun turli ko'rinishdagi, turli e'tiqoddagi o'nlab manfaatparast toifalar orasiga to'nini yelkaga tashlab, boshiga do'ppisini kiyib chiqib keldi"<sup>9</sup>.

<sup>6</sup> Sulton I. Qoraqush yulduzining siri. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. –B. 236.

<sup>7</sup> Tarjima va tafsir muallifi: Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim. –Toshkent: Movarounnahr, 2020. –B. 566.

<sup>8</sup> Tarjima va tafsir muallifi: Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim. –Toshkent: Movarounnahr, 2020. –B. 429.

<sup>9</sup> Isajon Sulton nasri badiiyati (Ilmiy maqolalar, taqrizlar, adabiy suhbatlar, maktublar). –Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017. –B. 284.

Shuningdek, yana bir o'rinda ijodkor bo'ronga endi daxshatli hodisa emas, oldini olsa bo'ladigan hodisa sifatida ham qarash shakllanayotganini va tabiatni Tangri insonga xizmatkor qilib yaratganini ham ta'kidlaydi. Bizning yuqoridagi fikrlarimiz, o'ylaymizki, hali dengizdan tomchi xolos. Negaki, roman keng ko'lamli, ramzlarga, timsollarga boy va hali u yangidan-yangi tadqiqotlarni kutib turibdi. O'z muallifining ham diniy, ham dunyoviy bilimlar sohibi, chin yurak egasi ekanligi sharafiga bitilajak bayotlarga bag'rini keng ochib turibdi. Roman yozib bo'lingach, bir umrini yashagan bo'lsa, endi yozuvchining ko'ksidan uchirma bo'lib, endi samoda vaqt shamollariga, qor-u bo'ronlariga chidamli o'zining ikkinchi umrini yashashda davom etmoqda.

Xulosamizni ham adibning quyidagi javobi o'zida bo'lgan savoli bilan yakunlamoqchimiz: "O'zingni o'yla" demoqda zamona falsafasi. Men esa otamni o'ylayapman. Har qanday o'zbek menga hamdard bo'lishi mumkin, lekin har qanday o'zga kishi "nodon" deyishi turgan gap. Hayoti o'zbek kishisniki kabi ramzlarga to'liq boshqa xalq ham bormikin deb o'ylab qolaman..."

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tarjima va tafsir muallifi: Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim. –Toshkent: Movarounnahr, 2020.
2. Sulton I. Qoraqush yulduzining siri. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019.
3. Isajon Sulton nasri badiiyati (Ilmiy maqolalar, taqrizlar, adabiy suhbatlar, maktublar). –Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017.
4. Salohiddin ibn Ahmad. Islomda bid'at tushunchasi. – Toshkent: Munir, 2021.
5. *Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. –Toshkent: Hilol-nashr, 2021.*
6. *Sulton I. Boqiy darbadar. Sharq yulduzi / 2010 yil, 6-son.*
7. *F. Salaev, G.Qurboniyozov. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so'zligi. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.*